

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXELOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддигов Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович

ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ
УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ

260

27. Юнусова Хуршида Эркиновна

ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ
(XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)

268

Tog'ayev J. E.

«O'zbekiston tarixi» kafedrası dotsenti., PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

jasur.togaev@nuu.uz

QADIMGI DAVR ME'MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bronza va ilk temir davri me'morchiligi tarixiy rekonstruksiyasiga oid masalalar muhokama qilingan. Janubiy O'zbekiston bronza va ilk temir davriga oid ayrim yodgorliklarning rekonstruksiya modellari tahlil etilib, qadimgi davr me'morchiligi tarixiy rekonstruksiyasining ahamiyati muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: arxeologiya, tarixiy rekonstruksiya, madaniy meros, me'morchilik, 3D modellashtirish.

KIRISH

Dunyo miqyosida qadimgi davrning tarixiy rekonstruksiyasi va alohida moddiy buyumlar, tarixiy me'moriy inshootlarning virtual modellarini rekonstruksiya qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Qadimgi Baqtriyaning tarkibiga kirgan Janubiy O'zbekiston – Surxon vohasining bronza va ilk temir davri tarixi va madaniyati, chunonchi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarixi rekonstruksiyasi, etnomadaniy jarayonlar, migratsiyalar va iqtisodiy aloqa yo'llari hamda ilk davlatchilik tarixini qayta tiklash, sivilizatsiya tarixiga oid ilmiy axborot materiallarini qiyoslash va zamonaviy talqin qilish amalga oshirilmoqda.

Janubiy O'zbekiston hududida bronza va ilk temir davrida rivojlangan sivilizatsiya tarixini yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida tahlil qilish, tarixiy rekonstruksiya jarayonida 3D (uch o'lchovli) modellashtirish texnologiyasidan foydalanish, yetarli darajada o'rganilmagan muammolarni ko'rib chiqish va umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish, O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo qadimgi tarixini ilmiy ma'lumotlar bilan boyitishni taqozo etmoqda.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Qadimgi davr me'morchiligi tarixini o'rganishda inshootlarning rekonstruksiya modellari ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur rekonstruksiya modellari



tadqiqotning eng muhim xulosalarini o‘zida aks ettirishi hamda barcha soha vakillari uchun tushunarli bo‘lishi bilan ham o‘ziga xos o‘ringa ega.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘rta Osiyo qadimgi davr turar-joylari, manzilgohlar, ibodatxonalarining rekonstruksiyalari borasida tadqiqotlarda e’tibor qaratilgan bo‘lib, ularning aksariyati qo‘lda chizilgan tasvirlar orqali rekonstruksiya qilingan. Masalan, Jonbosqal’a, Oltintepa, Zamonbobo, Dashtli, Gonur, Sopollitepa, Jarqo‘ton, Qizilcha 6, Talashkantepa va boshqalar shular jumlasidandir [1, C. 136].

Masalan, Jonbosqal’a yodgorligi S.P.Tolstov tomonidan tadqiq qilingan. Uning qurilish uslubi xususida qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Olimning fikricha, mazkur yodgorlikda aniqlangan kulba balandligi 8-10 metrdan iborat bo‘lib, umumiy maydoni 290 m²ni tashkil qilgan [2, S. 60-61]. To’sin, xoda va qamishdan foydalangan holda tekislik ustida barpo qilinganligi qayd etiladi [3, B. 45]. Etnografik ma’lumotlar qiyosiy tahlili asosida (mandanlar, bakair va andamanlar misolida) S.P.Tolstov bu kulbaning tom qismi yopilishi konussimon shaklda ekanligini qayd etib (kulba ayni shu asosda rekonstruksiya qilingan), taxminan 100-125 kishi yashaganligini qayd etadi [2, C. 62].

Shuningdek, Jonbosqal’a turar joyi ko‘rinishini modellashtirish borasida M.P.Gryaznov varianti ham muhim. Olim fikricha, bu turar-joy yerto‘la shaklida bo‘lib, tepa qismi sakkizburchak shaklida yopilgan hamda uning balandligi 4 metrni tashkil etgan. Bu rekonstruksiya Xorazm iqlimini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi qayd etiladi [4, C. 136-137].

1-jadval







	
1-rasm. S.P.Tolstov rekonstruksiyasi	2-rasm. M.P.Gryaznov rekonstruksiyasi



Surxon vohasida bronza va ilk temir davri turli inshootlarini barpo etishda tabiiy-geografik sharoit va iqlimni, shuningdek, qurilayotgan bino vazifasi va xususiyatini e’tiborga olgan holda binokorlar aniq o‘lchamlarga rioya qilishgan. Inshootlar geometrik mutanosiblik talablari va binolarning tarhlari muayyan

simmetriyaga asoslanib, mudofaa masalalari inobatga olingan tarzda ishlab chiqilgan. Bronza va ilk temir davri Copollitepa, Jarqo‘ton, Qizilcha 6 va Talashkantepa kabi muhim yodgorliklarning me‘moriy tarhi, qo‘lda chizilgan rekonstruksiya maketlari bir qator monografiyalarda o‘z ifodasini topgan [9].

Olib borilgan tadqiqotlarda ifodalangan bronza va ilk temir davrining ayrim yodgorliklarining me‘moriy rejalari va rekonstruksiya namunalariga oid quyidagi jadvalni keltirish mumkin:

2-jadval

Yodgorlik	Me‘moriy tarh	Rekonstruksiya modeli
Zamonbobo		
Sopollitepa		
Jarqo‘ton ibodatxonasi		

Qizilcha 6		
Talashkantepa		

Bugungi kunda axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda qadimgi davr me'moriy yodgorliklarining rekonstruksiya modellarini yaratish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, tarixiy jarayonlarning zamonaviy kompyuter modellashtirish tipologiyasini uch: statistik, imitatsion, analitik sinflarga ajratish mumkin. Mazkur klassifikatsiya tarixiy va sotsiologik jarayonlarni modellashtirgan amerikalik mutaxassislar Dj.R.Xollingsvort va R.Xannemanlarning qarashlariga amaliy jihatdan to'g'ri keladi [5, C. 50].

Bugungi kunga kelib, imitatsion modellashtirishning ikki tipi: dinamik jarayonlarning kompyuter rekonstruksiya (statistik manbalar asosida) va obyektlarning uch o'lchamli virtual rekonstruksiya (statistik manbalar asosida) va obyektlarning uch o'lchamli virtual rekonstruksiya (statistik manbalar asosida) ajratib ko'rsatish mumkin.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi tarixiy materialni virtual modellashtirish orqali namoyon etishda ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi [6]. O'tgan asrning 80-90-yillaridan rivojlangan Amerika va Yevropa mamlakatlari, 2000-yillardan boshlab Rossiya olimlari tomonidan tarixiy va arxeologik tadqiqotlarda uch o'lchamli modellashtirishdan foydalanish masalasiga oid qator ilmiy izlanishlar olib borildi hamda maqolalar e'lon qilindi.


Bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda arxeologik manzilgohlar, qadimgi davr me'moriy inshootlarini rekonstruksiya (qayta tiklash) qilish mumkin. Xorijiy arxeologlar keng miqiyosda AutoCad, MicroStation, AutoCad Map, Easy Cad, 3DsMax, Autodesk Maya, ArhiCAD, 3DWorldStudio, Unity 3DQuest 3D, 3DVia Studio (Virtual Tools), Unigine, 3D Game Studio va boshqa shu kabi maxsus dasturlardan foydalanadilar. Mazkur dasturlardan tarixchi-arxeologlar dala tadqiqot ishlarida, manzilgohlar, me'moriy inshootlar, arxeologik

topilmalarning uch o'lchamli modellarini qayta tiklashda samarali foydalanishlari mumkin

Tadqiqotchi D.I.Jerebyatyevning ilmiy ishida uch o'lchovli modellashtirishning tarix va arxeologiya sohasida qo'llanilish masalasi yoritilgan [7]. Tarixiy tadqiqotlarda uch o'lchovli texnologiyalardan foydalanishning tashabbuskori tarixchi, arxitektor, san'atshunos olimlar jamoasi hisoblanib, ular axborot texnologiyasi mutaxassislari yordamida tarixiy-madaniy meros obyektlarini virtual qayta tikladilar.

Tarixiy madaniy meros yodgorliklarini virtual modellarini yaratish masalasi fanlararo masala bo'lib, bu masala bilan tarixchilar, axborot texnologiyasi bo'yicha mutaxassislar va arxitektorlar hamkorlikda shug'ullangani ham maqsadga muvofiq. Tarixiy-madaniy meros yodgorliklarini ilmiy jihatdan o'rganish hamda ularni targ'ib qilish maqsadida xalqaro loyihalar asosida bir qator internet saytlarida [8] ham yodgorliklarning 3D modellari o'rin olgan. Ta'lim va ilmiy tadqiqotlar jarayonida bunday saytlarda keltirilgan virtual rekonstruksiylar namunalarining ahamiyati beqiyos.

Qizilcha 6 uy qo'g'oni me'moriy rejasi va qayta tiklangan modeli



Umuman olganda, arxeologik yodgorliklarining 3D modellarini qayta tiklashning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

bronza va ilk temir davri davlatchilik tarixida muhim davr hisoblanib, mazkur davr yodgorliklari tuzilishini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim o'rin tutadi;

yodgorliklarning 3D modellari tashqi ta'sirdan holi bo'lib, tegishli mutaxassislar xulosalari asosida yaratilgan mukammal modellar kelajak avlod uchun mazkur yodgorliklarni yetkazishning samarali usulidir;

yodgorliklarning 3D modellarining yaratilishi va internet orqali ommalashtirilishi O'zbekistonda yangi turistik marshrutlarini shakllanishiga (arxeologiya va tarix sohalari bilan bog'liq) munosib hissa qo'shadi;

mazkur modellardan ta'lim tizimida, ya'ni zamonaviy o'quv adabiyotlarida samarali foydalanish mumkin. Bunday modellardan ayniqsa masofaviy ta'limda ko'rgazmali material sifatida foydalanish talaba va o'quvchilarning qadimgi davr shaharsozligi va me'morchiligi to'g'risidagi qarashlarini shakllanishida muhim ahamiyatga ega;

bunday modellardan virtual muzey eksponatlari sifatida foydalanish mumkin;

O'zbekistonning eng mashhur qadimiy me'moriy inshootlarining 3D modellari to'plamini yaratish orqali tarixiy-madaniy merosimizni keng targ'ib qilish mumkin.

XULOSA

Bronza va ilk temir davri me'morchiligi tarixiy rekonstruksiyasida 3D modellashtirish usullaridan samarali foydalanish, ayniqsa, tarixiy-madaniy merosni kelajak avlod uchun saqlash borasida istiqbolli ahamiyati beqiyosdir. Bu borada ayrim muammolar mavjud. Ular zamonaviy texnologiyalarning tarixiy tadqiqotlar va o'quv jarayonida yetarlicha qo'llanmaganligi bilan belgilangan.

Ilmiy ma'lumotlar tahlili va zamonaviy modellashtirish dasturlari asosida Surxon vohasi bronza va ilk temir davri ibodatxona, uy-qo'rg'oni 3D modellarining rekonstruksiyasi amalga oshirilgan. Shu tariqa, dasturiy vositalar yordamida madaniy landshaftni, tabiiy muhitni va qadimgi shaharlarni to'liq holda qayta tiklash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Tarixiy rekonstruksiya yo'nalishida yaratilgan Surxon vohasi bronza va ilk temir davri yodgorliklarining 3D modellaridan ta'lim tizimida va yangi o'quv adabiyotlarida, shaharsozlik va me'morchilik tarixi bo'yicha bilimlar va qarashlarni boyitishda hamda tarixiy-madaniy merosni o'rganish va targ'ib etishda virtual muzey eksponati sifatida keng foydalanish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М., – Л.: Наука, 1948. – С. 66-67; Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. Отв. редактор В.М.Массон. – М., – Л.: Наука, 1966.
2. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948.
3. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент, 1959.

4. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. Отв. редактор В.М.Массон. – М., – Л.: Наука, 1966.
5. Бородкин Л.И., Жеребятков Д.И. Технологии 3D-моделирования в исторических исследованиях: от визуализации к аналитике // Историческая информатика. №2, 2012.
6. <http://hist.msu.ru/Departments/Inf/Asp/Zrb05.pdf>
7. Жеребятков Д.И. Методы исторической реконструкции памятников истории и культуры России средствами трёхмерного компьютерного моделирования. Автореф. дисс. канд. ист. наук. – Москва. 2013. – 28 с.
8. <https://www.europeana.eu/en/search?page=3&query=3D&view=grid>, <http://3darchaeology.3dn.ru/dir/3>; <https://www.cyark.org/>, <http://www.historie.ru/3d-rekonstrukcii/blizhnij-vostok/619-luksorskiy-i-karnakskiy-hram-rekonstrukciya.html>,
9. Аскарлов А.А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – 172 с.; Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. – Ташкент: Фан, 1983. – 120 с.; Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: ИА АН РУз, 1993. – 162 с.; Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент: Фан, 1987. – 136 с. илл.; Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. – Самарканд: Институт археология, 2000. – 119 с.; Выдающиеся памятники археологии Узбекистана. – Ташкент: SAN'AT, 2013. – 316 с.

Тогаев Ж. Э.

PhD., доцент кафедры «История Узбекистана»
Национальный университет Узбекистана
jasur.togaev@nuu.uz

О ИСТОРИЧЕСКОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ АРХИТЕКТУРЫ ДРЕВНЕГО ПЕРИОДА (НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с исторической реконструкцией архитектуры бронзового и раннего железного веков. Проанализированы реконструкционные модели некоторых памятников, относящихся к бронзовому и раннему железному векам Южного Узбекистана, а также обсуждено значение исторической реконструкции архитектуры древнего периода.

Ключевые слова: археология, историческая реконструкция, культурное наследие, архитектура, 3D-моделирование.

Togaev J. E.

PhD., associate professor at the department of «History of Uzbekistan»

National University of Uzbekistan

jasur.togaev@nuu.uz

HISTORICAL RECONSTRUCTION OF ARCHITECTURE OF THE ANCIENT PERIOD (ON THE EXAMPLE OF SOUTHERN UZBEKISTAN)

ABSTRACT

This article discusses issues related to the historical reconstruction of Bronze and Early Iron Age architecture. It analyzes reconstruction models of several archaeological sites from the Southern Uzbekistan dating back to these periods and examines the significance of historical reconstruction in the study of ancient architecture.

Keywords: archaeology, historical reconstruction, cultural heritage, architecture, 3D modeling.